

INOYATULLOH IBN MUHAMMAD SAFO IJODIDA AN'ANAVIYLIK

Matqurbanova Maftuna Farhod qizi,

O'zbekiston Milliy Universiteti magistri

mirzoxajiboyev8@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyoti an'analari doirasida Inoyat ijodining o'ziga xos jihatlari yoritiladi. Xususan, shoir ijodida an'anaviylikning namoyon bo'lishi Alisher Navoiy va Muhammadrizo Ogahiy adabiy merosi bilan qiyosiy tahlil asosida tadqiq etiladi. Maqolada Navoiyning "paydo" radifli g'azaliga va Ogahiyning "sallamno" radifli g'azaliga tatabbu' bog'lagani hamda Ogahiyning "orazing" radifli g'azaliga Inoyat tomonidan taxmis yaratilgani matnshunoslik va adabiy manbashunoslik aspektlariga asoslab beriladi. Shuningdek, mazkur g'azallar orqali Inoyat ijodida an'anaviylik va badiiy davomiylilik masalalari ochib beriladi. Maqola yakunida shoirning mumtoz adabiy merosga munosabati hamda uning ijodiy o'ziga xosligi yuzasidan xulosalar chiqarilgan.

Tayanch so'zlar: Inoyat, g'azal, Alisher Navoiy, Ogahiy, tatabbu', qo'lyozma, bayt, band, taxmis, nusxa.

Аннотация. В данной статье освещаются специфические аспекты творчества Иноят в рамках традиций узбекской классической литературы. В частности, на основе сравнительного анализа с литературным наследием Алишера Навои и Мухаммадризо Огахия изучается проявление традиционализма в творчестве поэта. В статье представлены газель Навои с радифом «пайдо» и газель Огахия с радифом «салламно», а также создание Иноят тахмиса к газели Огахия с радифом «оразинг» на основе текстологического и литературоведческого анализа. Кроме того, через эти газели раскрываются вопросы традиционализма и художественной преемственности в творчестве Иноят. В заключение статьи делаются выводы об отношении поэта к классическому литературному наследию и его творческой оригинальности.

Ключевые слова: Инаят газель, Алишер Навои, Огахий, татаббу, рукопись, стих, кусок, такмис, копия.

Abstract. This article highlights the specific aspects of Inoyat's work within the traditions of Uzbek classical literature. In particular, the manifestation of traditionalism in the poet's work is studied on the basis of a comparative analysis with the literary heritage of Alisher Navoi and Muhammadrizo Ogahiy. The article presents Navoi's ghazal with the radif "paydo" and Ogahiy's ghazal with the radif "sallamno" and Inoyat's creation of a takhmis to Ogahiy's ghazal with the radif "orazing" based on the aspects of textual and literary source studies. Also, through these ghazals, the issues of traditionalism and artistic continuity in Inoyat's work are revealed. At the end of the article, conclusions are drawn about the poet's attitude to the classical literary heritage and his creative originality.

Key words: Inoyat, ghazal, Alisher Navoi, Ogahiy, tatabbu', manuscript, couplet, band, takmis, copy.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida yashab ijod etgan, asli millati qozoq bo'lgan Inoyatulloh ibn Muhammad Safo, adabiy taxallusi Inoyat, Xiva adabiy muhitida yetishib chiqqan ko'p qirrali ijodkorlardan biri sanaladi. U nafaqat iste'dodli shoir, balki mohir shatranjboz, fiqh ilmidan yaxshi xabardor bo'lgan bilimdon hamda xattot sifatida ham shuhrat qozongan. Inoyat o'z davrida nafaqat o'zbek tilida, balki forsiy tildagi devonlarni ham ko'chirganligi bilan yozma merosni asrash va targ'ib etishda muhim o'rin tutgan. Shoirning tug'ilgan yili aniq ma'lum emas, biroq u 1912-yilda vafot etgani qayd etiladi. Inoyat ijodi va faoliyati uning nafaqat badiiy so'z san'atida, balki ilm-fan va madaniyatning turli sohalarida ham chuqur iz qoldirganini ko'rsatadi. Shu bois u

Xiva adabiy-madaniy muhitining yetuk va e'tiborli namoyandalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Inoyatulloh ibn Muhammad Safo ijodini o'rganishda, avvalo, mavjud qo'lyozma manbalar asosiy ilmiy tayanch vazifasini o'taydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti asosiy qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 947 inventar raqamli qo'lyozma devon maqolaning bosh manbalari sifatida jalb etildi. Mazkur qo'lyozma devonining matniy tarkibi, she'riy merosining hajmi, janr xususiyatlari hamda matn variantlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, 1134, 1130, 1127 raqamli qo'lyozma bayozlardan ham foydalanilib, ulardagi Inoyat she'rlarining boshqa nusxalari bilan qiyosiy o'rganilishi amalga oshirildi. Izlanishlar jarayonida Inoyat ijodida an'anaviylikni ochib berish maqsadida Alisher Navoiyning "Navodir ush-shabob" va Muhammad Rizo Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin" devoni ham muhim manba sifatida qo'llanildi. Ushbu adabiyotlar orqali Xiva adabiy muhiti, undagi ijodiy an'analar, uslubiy yaqinlik va farqlar aniqlanib, Inoyat ijodining o'ziga xos jihatlari yoritildi. Mazkur maqolada asosan matnshunoslikning qiyosiy-tahliliy metodi yetakchi o'rin tutadi. Qo'lyozma nusxalar o'zaro solishtirilib, ularning farqli va mushtarak jihatlari aniqlanadi, matnlar orasidagi variantlar ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy-qiyosiy metod yordamida Inoyat ijodining davr adabiy jarayonidagi o'rni belgilandi, adabiy-estetik xususiyatlari ochib berildi. Tadqiqotda kompleks yondashuv asosida matnshunoslik, adabiy manbashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik metodlaridan foydalanildi. Bu esa Inoyatulloh ibn Muhammad Safo devonining ilmiy jihatdan mukammal o'rganilishiga, uning qo'lyozma an'analari va matn evolyutsiyasini chuqur tahlil etishga imkon yaratdi.

Muhokama. Xorazm adabiy muhitida Inoyat ijodida an'anaviylik ikki xil ko'rinishda uchraydi. Birinchisi buyuk shoirlar g'azallariga tatabbu' tarzida g'azal yozish bo'lsa, ikkinchisi taxmis bog'lash shaklida uchraydi. Shoir 947 inventar raqamli devon qo'lyozmasida Alisher Navoiy va Feruz g'azallariga tatabbu'lari ko'chirilgan. 1127, 1130, 1134 inventar raqamli qo'lyozma bayozlarga esa Inoyatning buyuk shoirlar g'azallariga bog'lagan taxmislari ko'chirilgan. Shoir Alisher Navoiyning "Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulruh shitob aylab...", "Sho'x ikki g'izolingni noz uyqusidin uyg'ot...", "Ulki solg'ay shul'a a'zosig'a o'tlug' ohlar...", "Muvofiq keldilar bo'lmish magar navro'z ila bayram...", Ogahiyning "Jonbaxsh la'ling uzra to xat qildi paydo orazing...", "Yoqutdurmu bilmadim yo la'l ey jonon labing...", "Vah ne balodur bilmadim, ey dilrabo, qosh-u ko'zing...", Muhammad Rahimxon Feruzning "Ko'zunga bir pari orazi padidor etti, ketti...", "Gul yuzung ochib, ey gul, majlisim guliston qil...", "Ochilmish gul eturmish, bog'a ziynat, ey sanam, kelgil...", "Manga rahm aylab ul shirinzabon ohista, ohista...", "Dedim: ko'zimni ravshan et mehr-u jamoling ko'rsatib...", "Oromijon nigorim, sarv-u ravon nigorim...", Ravnaqning "Kelgil, ey mahliqo, nodirayi davronim...", Munisning "Xiromon qomatingkim, gulshani umrimni holidir..."

Navrasning “Faryodki, faryodimi go‘sh etdira bilan...” deb boshlanuvchi g‘azallariga taxmis bog‘lagan.

Inoyat Alisher Navoiy ijodiy an‘analarini davom ettirgan holda, shoirlik mahoratini yanada oshirgan. Tatabbu’ - biror shoir ijodidan ta’sirlangan holda, xuddi o‘sha vazn, qofiya, radif va obrazlarni saqlagan holda g‘azal yozish an‘anasi demakdir. Jumladan, shoir Alisher Navoiyning “paydo” radifli g‘azaliga tatabbu’ bog‘lagan. Inoyat qalamiga mansub tatabbu’ning matlasi:

Xudovandiki, sun‘idin zamin-u osmon paydo,
Demay arz-u samo balkim, erur ikki jahon paydo. (947 inv. 1b-bet)

Bu g‘azal Alisher Navoiyning “paydo” radifli hamd g‘azaliga tatabbu’ bo‘lib kelgan. Ushbu g‘azal buyuk shoirning “Navodir ush-shabob” devonidan o‘rin olgan. G‘azal matla’si quyidagicha:

Yuzung ko‘zgidin olamda yuz nuru safo paydo,
Quyosh andin aningdekkim quyoshdin zarra nopaydo.

Ushbu g‘azal hazaji musammani solim (mafoilun mafoilun mafoilun mafoilun V -----V --
-----V ----- V -----) vaznida yozilgan bo‘lib, Inoyat bog‘lagan tatabbu’ ham xuddi shu vaznga amal qilingan. Alisher Navoiy g‘azali to‘qqiz baytli bo‘lib, Inoyat bog‘lagan tatabbu’si esa yetti baytli. Radifi bir xil. G‘azal qofiyalarida esa o‘zgarish uchraydi. Navoiy g‘azalida safo, zarrano, davo, intiho, balo, ano, jafu, fano, sango, navo so‘zlari qofiya tarzida berilgan. Inoyat g‘azalida esa osmon, jahon, makon, mo‘ru mor, odam, shon, nihon, ravon so‘zlari qofiya bo‘lib kelgan.

Serqirra ijodkor Inoyat Ogahiyning “sallamno” radifli g‘azaliga ham tatabbu’ bog‘lagan. O‘zR FA ShI Hamid Sulaymon fondida saqlanayotgan 1529 inventar raqamli “Ta’viz ul-oshiqin” devoniga kirgan ushbu g‘azal yakpora g‘azallar turkumiga mansub bo‘lib, aruzning hazaji musammani solim (mafoilun mafoilun mafoilun mafoilun V -----
V -----V ----- V -----) vaznida yozilgan. Shoir Inoyat Ogahiy g‘azaliga bir xil vaznda, radifi ham bir xil bo‘lgan tatabbu’ bog‘laydi. ”Ta’viz ul-oshiqin” devonida kelgan bayt quyidagicha:

Olur har lahza yuz jon chashmi fattoningg‘a sallamno,
To‘kar har damda ming qon tiyg‘i mujgoningg‘a sallamno.

Inoyat tatabbu’si:

Olur jonim nigoro chashmi fattoningg‘a sallamno,
To‘kar qonim damodam tig‘i mujgoningg‘a sallamno (947 inv.3a/b-bet)

Ushbu matla’ baytlar orasida o‘xshashliklar uchraydi. Ammo keyingi baytlar esa bundan mustasno. “Ta’viz ul-oshiqin” devonida keltirilgan ikkinchi bayt:

Jahon bozorida sindurdi yoqut-u guhar qadrin,
Durafshon nukta birla la’li xandoningg‘a sallamno

Shoir tatabbu’sidagi ikkinchi bayt:

Qilur po‘r nuru ravshan bo‘rqa olg‘och dahrni yaksar,

Sabohatda yuzi xurshid taboningg'a sallamno.

Ogahiy g'azali to'qqiz baytli bo'lib, Inoyat bog'lagan tatabbu' esa yetti baytlidir. G'azal boshdan oyoq ma'shuqaning tasviriga bag'ishlangan bo'lib, Inoyat g'azali ham shu mazmunda yozilgan. Ogahiy g'azalida fattoningg'a, mujgoningg'a, xandoningg'a, parishoningg'a, raxshoningg'a, xiromoningg'a, ruxsori taboningg'a, ehsoningg'a, dostoningg'a, imoningg'a, joningg'a so'zlari qofiya bo'lib kelgan. Inoyatning tatabbu' g'azalida esa fatoningg'a, mujgoningg'a, toboningg'a, xiromoningg'a, hijroningg'a, afg'oningg'a, xandoningg'a, ehsoningg'a so'zlari qofiya bo'lib kelgan.

Inoyat ijodida Alisher Navoiy va Ogahiy an'alarining davom etishi faqat tatabbu' yozish bilangina cheklanib qolmaydi. Shoir o'zining badiiy mahoratini namoyon etar ekan, buyuk ijodkorlar g'azallariga taxmis bog'lash orqali ham Navoiy va Ogahiy merosiga chuqur ehtirom bilan yondashganini ko'rsatadi. Taxmis yozish esa ijodkordan katta mas'uliyat va yuksak badiiy salohiyatni talab etadi: qo'shilgan misralar asliy matn vazni, qofiyasi va mazmun-mohiyatiga to'la mos kelishi, bir butun asar sifatida uyg'unlik kasb etishi lozim. Inoyatning Ogahiy g'azallariga bog'lagan taxmislari ana shu talablarga munosib tarzda yaratilgan bo'lib, ularda mazmun uyg'unligi, badiiy nafosat va uslubiy yaqinlik yaqqol namoyon bo'ladi. Bu holat Inoyatning buyuk shoirlar ijodini chuqur o'zlashtirgani, uning poetik an'alarini puxta anglagani va ijodiy ravishda davom ettirganidan dalolat beradi. Shoirning Ogahiyning rajazi musammani solim (- - V - / - - V - / - - V - / - - V -) vaznida yaratgan to'qqiz baytli "Jonbaxsh la'ling uzra to xat qildi paydo orazing" misrasi bilan boshlanuvchi g'azaliga bog'lagan taxmisi 1134 raqamli "Majmuat ush-shuaro-i payravi Feruzshohiy" qo'lyozma manbaga va 1130,1127 inventar raqamli "Bayozi muxammasot" qo'lyozma manbalarga ko'chirilgan. Inoyat g'azalning yetti baytiga taxmis bog'lagan. Taxmisning birinchi bandi quyidagicha:

Qilmish xayli mazhari Tangri taoloyi orazing,

Kim dahrni ravshan qilur xurshidosa orazing,

Ochdingmu ushbu lahzada ey sho'xi barno, orazing,

Jonbaxsh la'ling uzra to xat qildi paydo orazing,

Jam ayladi xurshid uza Xizr-u Masiho orazing.

Shoir taxmisida g'azalning ikkinchi misrasi o'rin almashgan holda qo'llanilgan. Aslida Ogahiy g'azalida quyidagicha:

Jonbaxsh la'ling uzra to xat qildi paydo orazing,

Xurshid uza jam ayladi Xizr-u Masiho orazing.

Taxmisning quyidagi ikkinchi bandidagi g'azal aslida Ogahiy g'azalida oltinchi bayt bo'lib kelgan:

Oydek yuzung mahjurlari shom g'amini yorutub,

Partav mening shomimga ham solg'aymu oyo orazing.

Oltinchi banddagi bog‘langan g‘azal baytida “yakto” so‘zi uchraydi. Aslida esa Ogahiy g‘azalida bu so‘z “hamro” bo‘lib yozilgan. Bundan tashqari fonetik farq ham uchraydi ya‘ni, “tilar” so‘zi taxmisdan “tilab” tarzida ko‘chirilgan:

Zohid tilab jannat gul sarvin magarkim ko‘rmamish,

Lutf ichra zebo qomating husn ichra yakto orazing.

“Hamro” - qirmizi, qizil ma‘nosida “yakto” so‘zi esa yagona, tengi yo‘q, sheriksiz, tanho, misli ko‘rilmagan ma‘nolarini anglatadi. Baytda qizil orazing yoki yagona, misli ko‘rilmagan orazing jumllarini qo‘llash mazmun o‘zgarishiga unchalik ta‘sir o‘tkazmaydi. Mazkur baytda shoir zohid (ma‘nosi dindor, iymon-e‘tiqodli, taqvodor, bu dunyo ne‘matlariga beparvo, parhezkor va Allohning ibodatida bardavom bo‘lgan kishi) obrazini tasvirlab, uning jannat ne‘matlariga bo‘lgan intilishini majoziy tarzda talqin etadi. Ya‘ni, zohid jannatdagi gul va sarvni orzu qilmoqda, go‘yo u sening latofatli, go‘zal qomatingni va husn ichida tengsiz bo‘lgan yuzingni hali ko‘rmagandek. Agar u sening bunday betakror go‘zalligingni ko‘rganida edi, jannat ne‘matlariga bunchalik talpinmagan bo‘lardi.

Natija. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Xorazm adabiy muhitida faoliyat yuritgan Inoyat ijodida an‘anaviylik muhim o‘rin tutib, u asosan tatabbu‘ va taxmis shakllari orqali namoyon bo‘ladi. Shoirning ijodiy merosi qo‘lyozma manbalar asosida o‘rganilganda, xususan, 947 inventar raqamli devon qo‘lyozmasida uning Alisher Navoiy va Ogahiy g‘azallariga bog‘lagan tatabbu‘lari mavjudligi aniqlanadi. Shuningdek, 1127, 1130, 1134 inventar raqamli qo‘lyozma bayozlarda Inoyatning turli mumtoz shoirlar g‘azallariga bog‘lagan taxmisleri keltirilgan bo‘lib, bu holat shoirning mumtoz adabiy an‘analarni izchil davom ettirganidan dalolat beradi. Tatabbu‘lar tahlili asosida aniqlanishicha, Inoyat g‘azallarida asliy manbaga xos vazn va radif qat‘iy saqlangan. Xususan, 947 inventar raqamli qo‘lyozmada keltirilgan Alisher Navoiyning “paydo” radifli g‘azaliga bog‘langan tatabbu‘da ham, Ogahiyning “sallamno” radifli g‘azaliga yozilgan tatabbu‘da ham hazaji musammani solim vazni to‘liq saqlangan. Bu esa shoirning aruz tizimini mukammal egallaganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tatabbu‘larda baytlar soni jihatidan muayyan tafovutlar mavjud bo‘lib, asliy g‘azallar to‘qqiz baytdan iborat bo‘lsa, Inoyat tomonidan yaratilgan tatabbu‘lar yetti bayt shaklida berilgan. Bu holat shoirning an‘anaga sodiq qolgan holda, uni ijodiy qayta ishlaganini ko‘rsatadi. Qofiya tizimi tahlili ham muhim natijalarni beradi. Asliy g‘azallarda qo‘llangan qofiya birliklari bilan Inoyat g‘azallaridagi qofiyalar o‘rtasida farqlar kuzatiladi. Ya‘ni, vazn va radif saqlangan bo‘lsa-da, qofiya yangilanishi orqali shoir o‘zining individual poetik uslubini namoyon etadi. Bu esa tatabbu‘ning oddiy taqlid emas, balki ijodiy jarayon ekanini tasdiqlaydi. Taxmislar tahlili esa Inoyat ijodida an‘anaviylikning yanada murakkab shaklda namoyon bo‘lganini ko‘rsatadi. Xususan, 1134 inventar raqamli “Majmuat ush-shuaro-i payravi Feruzshohiy”, shuningdek, 1130 va 1127 inventar raqamli “Bayozi muxammasot” qo‘lyozmalarida saqlanayotgan taxmislar misolida shoirning yuqori badiiy

mahorati yaqqol namoyon bo'radi. Inoyat tomonidan qo'shilgan misralar asliy g'azal vazni, qofiyasi va mazmuniga to'la mos kelib, yaxlit kompozitsion tuzilmani yuzaga keltiradi. Bu esa shoirning nafaqat an'anani davom ettirganini, balki uni ijodiy jihatdan boyitganini ko'rsatadi. Shuningdek, taxmislar tarkibida ayrim matniy tafovutlar ham aniqlandi. Jumladan, baytlarning o'rin almashgan holda qo'llanishi yoki leksik birliklarning variant shaklda berilishi (masalan, "hamro" so'zining "yakto" tarzida, "tilar"ning "tilab" shaklida yozilishi) kuzatiladi. Biroq bu kabi o'zgarishlar umumiy mazmunga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Aksincha, ular qo'lyozma an'analari va kotiblar ko'chirishi jarayoni bilan bog'liq xususiyat sifatida baholanadi. Bundan tashqari, Inoyat tomonidan yaratilgan taxmislarda mazmuniy uyg'unlik muhim o'rin tutadi. Shoir asliy g'azal mazmunini chuqur anglagan holda, unga mos yangi misralar yaratadi va natijada asarning badiiy ta'sirchanligini oshiradi. Bu holat uning mumtoz adabiy merosni puxta o'zlashtirganini va uni ijodiy rivojlantirganini ko'rsatadi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Inoyat ijodida mumtoz adabiy an'analar izchil davom ettirilganini, ayniqsa tatabbu' va taxmis janrlarida shoirning yuksak badiiy mahorati namoyon bo'lganini tasdiqlaydi. Qo'lyozma manbalar (947, 1127, 1130, 1134 inventar raqamli nusxalar) asosida olib borilgan tahlillar uning ijodi an'anaviylik va ijodiy individuallik uyg'unligida shakllanganini ko'rsatadi. Bu esa Inoyatni Xorazm adabiy muhitining yetuk va o'ziga xos ijodkorlaridan biri sifatida ijod qilganidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. "Зарқалам", 2006. – 127 Б.
2. Муниров К. Хоразмда тарихнавислик (XXII-XIX ва XX аср бошлари). -Toshkent: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002 – 191 Б.
3. Рузибоев Т. Тахмис: генезис, тадриж ва поэтика. – Toshkent, Booknomy print, 2022, - 144 Б.
4. Сирожжидинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Тошкент: Akademnashr, 2015. – 120 Б.
5. Юсупов Ю. Хоразм шоирлари. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1967. – 100 Б.
6. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Toshkent, Ta'lim-media nashriyoti, 2019. – 183 Б.
7. Ahmad Tabibiy. "Majmuatu muxammasoti sh-shuaroi Feruzshohiy". Qo'lyozma bayoz. O'zbekiston FA SHI Asosiy fond. Inv: 1134.
8. Bayoz. Qo'lyozma. O'zbekiston FA SHI Asosiy fond. Inv: 1127.
9. Bayoz. Qo'lyozma. O'zbekiston FA SHI Asosiy fond. Inv: 1130
10. Devoni Inoyat. Qo'lyozma. O'zbekiston FA SHI Asosiy fond. Inv: 947.
11. Ogahiy. Ta'viz ul-oshiqin. Qo'lyozma. O'zbekiston.FA ShI Hamid Sulaymon fondi. Inv: 1529.